

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

REVIEW OF LAW SCIENCES



huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

правовой научно-практический журнал

legal scientific-practical journal

2024-yil 3-son

VOLUME 8 / ISSUE 3 / 2024

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2024.8.3.

ISSN 2181-919X

E-ISSN 2181-1148

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS



Crossref
Content
Registration

**MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT
YURIDIK UNIVERSITETI**

“Yuridik fanlar axborotnomasi – Вестник юридических наук – Review of law sciences” huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 22-dekabrda 0931-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan. Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro‘yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko‘paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

Muharrirlar:

Y. Yarmolik, Y. Mahmudov,
E. Mustafayev, K. Abduvaliyeva,
F. Muhammadiyeva, M. Sharifova,
Sh. Beknazarova

Musahhih:

S. Rasulova

Texnik muharrir:

U. Sapayev

Dizayner:

D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar,
Sayilgoh ko‘chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1385.

Jurnal 25.09.2024-yilda tipografiyaga topshirildi. Qog‘oz bichimi: A4.
Shartli 7,5 b.t. Adadi: 100.
Buyurtma raqami: 140.

TDYU tipografiyasida chop etildi.

© Toshkent davlat yuridik universiteti

BOSH MUHARRIR

I. Rustambekov – Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.v.b., yuridik fanlar doktori, professor

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI

B. Xodjayev – Toshkent davlat yuridik universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor

MAS‘UL MUHARRIR

O. Choriyev – Toshkent davlat yuridik universiteti Tahririy-nashriyot bo‘limi boshlig‘i

TAHRIR HAY‘ATI A‘ZOLARI

A. Saidov – Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazining direktori, yuridik fanlar doktori, professor (Toshkent, O‘zbekiston)

E. Juchniewicz – Gdansk universiteti professori, huquq doktori (Gdansk, Polsha)

A. Younas – yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Pekin, Xitoy)

O. Okyulov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

J. Nematov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori v.b., yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

Sh. Asadov – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

M. Aminjonova – O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi dotsenti, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

M. Rahimov – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

O. Narzullayev – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

B. Murodov – O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

A. Muxamedjanov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

N. Niyazova – Toshkent davlat yuridik universiteti professori v.b., pedagogika fanlari nomzodi (Toshkent, O‘zbekiston)

**УЧРЕДИТЕЛЬ: ТАШКЕНТСКИЙ
ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
ЮРИДИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ**

Правовой научно-практический журнал «Вестник юридических наук – Yuridik fanlar axborotnomasi – Review of Law Sciences» зарегистрирован Агентством печати и информации Узбекистана 22 декабря 2020 года с удостоверением № 0931.

Журнал включён в перечень журналов Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Авторские права принадлежат Ташкентскому государственному юридическому университету. Все права защищены. Использование, распространение и воспроизведение материалов журнала осуществляется с разрешения учредителя.

Реализуется по договорной цене.

Редакторы:

Е. Ярмолик, Й. Махмудов,
Э. Мустафаев, К. Абдувалиева,
Ф. Мухаммадиева, М. Шарифова,
Ш. Бекназарова

Корректор:

С. Расулова

Технический редактор:

У. Сапаев

Дизайнер:

Д. Ражапов

Адрес редакции:

100047. Город Ташкент,
улица Сайилгох, 35.
Тел.: (0371) 233-66-36 (1169)

Веб-сайт: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Подписной индекс: 1385.

Журнал передан в типографию
25.09.2024.

Формат бумаги: А4.

Усл. п. л. 7,5. Тираж: 100 экз.

Номер заказа: 140.

Отпечатано в типографии ТГЮУ.

© Ташкентский государственный
юридический университет

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

И. Рустамбеков – доктор юридических наук, профессор, врио ректора Ташкентского государственного юридического университета

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА

В. Ходжаев – доктор юридических наук, профессор, проректор по научной работе и инновациям Ташкентского государственного юридического университета

ОТВЕТСТВЕННЫЙ РЕДАКТОР

О. Чориев – начальник редакционно-издательского отдела Ташкентского государственного юридического университета

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ

А. Саидов – доктор юридических наук, профессор, директор Национального центра по правам человека Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

Э. Юхневич – доктор права, профессор Гданьского университета (Гданьск, Польша)

А. Юнас – доктор философии по юридическим наукам (Пекин, Китай)

О. Окюлов – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Ж. Нематов – доктор юридических наук, и. о. профессора Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Ш. Асадов – доктор юридических наук, профессор Академии государственного управления при Президенте Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

М. Аминжонова – доктор юридических наук, доцент Правоохранительной академии Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

М. Рахимов – доктор юридических наук, доцент Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

О. Нарзуллаев – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

В. Муродов – доктор юридических наук, профессор Академии МВД Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

А. Мухамеджанов – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Н. Ниязова – кандидат педагогических наук, и. о. профессора Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

**FOUNDER: TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF LAW**

“Yuridik fanlar axborotnomasi – Вестник юридических наук – Review of law sciences” legal scientific-practical journal was registered by Press and Information Agency of Uzbekistan on December 22, 2020, with certificate number 0931.

The journal is included in the list of journals of the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan. Copyright belongs to Tashkent State University of Law. All rights reserved. Use, distribution and reproduction of materials of the journal are carried out with the permission of the founder.

Agreed-upon price.

Editors:

Y. Yarmolik, Y. Makhmudov,
E. Mustafaev, K. Abduvalieva,
F. Mukhammadiyeva, M. Sharifova,
Sh. Beknazarova

Proofreader:

S. Rasulova

Technical editor:

U. Sapaev

Designer:

D. Rajapov

Publishing department address:

100047. Tashkent city,
Sayilgohk street, 35.
Phone: (0371) 233-66-36 (1169)

Website: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Subscription index: 1385.

The journal is submitted to the printing house on 25.09.2024.

Paper size: A4.

Cond. p.p.7,5. Unit: 100.

Order: 140.

Published in printing house of TSUL.

© Tashkent State University of Law

CHIEF EDITOR

I. Rustambekov – Acting Rector of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

DEPUTY EDITOR

B. Xodjaev – Deputy Rector for Scientific Affairs and Innovations of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

EXECUTIVE EDITOR

O. Choriev – Head of the Publishing Department of Tashkent State University of Law

EDITORIAL BOARD MEMBERS

A. Saidov – Director of the National Centre for Human Rights of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law, Professor (Tashkent, Uzbekistan)

E. Juchniewicz – Professor of the University of Gdansk, Doctor of Law (Gdansk, Poland)

A. Younas – Doctor of Philosophy in Legal Sciences (Beijing, China)

O. Okyulov – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

J. Nematov – Acting Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

Sh. Asadov – Professor of the Academy of Public Administration under the President of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Aminjonova – Associate Professor of the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Rakhimov – Associate Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy in Legal Sciences (PhD) (Tashkent, Uzbekistan)

O. Narzullaev – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

B. Murodov – Professor of the Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

A. Muxamedjanov – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

N. Niyazova – Acting Professor of Tashkent State University of Law, Candidate of Pedagogical Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

MUNDARIJA

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 8 **IMAMOVA DILFUZA ISMAILOVNA**
Xalqaro xususiy huquqda majburiyat munosabatlarini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish
- 15 **KAN YEKATERINA EDUARDOVNA**
Tibbiy tashxisda sun'iy intellekt va bemor huquqlarini himoya qilish munosabatlarining huquqiy arxitekturasini

12.00.04 – FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQI. XO'JALIK PROTSESSUAL HUQUQI. HAKAMLIK JARAYONI VA MEDIATSIYA

- 22 **PIRMATOV OTABEK SHAVKATOVICH**
Fuqarolik sud ishlarini yuritishda advokat ishtirokining protsessual jihatlari
- 31 **XURSANOV RUSTAM XOLMURATOVICH**
O'zbekiston Respublikasi fuqarolik huquqida subsidiar javobgarlik masalalari

12.00.06 – TABIIY RESURSLAR HUQUQI. AGRAR HUQUQ. EKOLOGIK HUQUQ

- 39 **SADIKOVA DILAFRUZ RADJABOVNA**
Markaziy Osiyoda tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishning huquqiy masalalari

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI. HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI OLISH. KRIMINOLOGIYA. JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

- 47 **XAYDAROV SHUXRATJON DJUMAYEVICH**
Jinoiy ravishda homila tushirish jinoyati obyektiv tomonining ilmiy-nazariy jihatlari
- 55 **ERMASHEV JENGIS MARATOVICH**
Bojxona sohasidagi jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish: ularni o'zaro farqlash masalalari

СОДЕРЖАНИЕ

12.00.03 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО. ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО.
СЕМЕЙНОЕ ПРАВО. МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО

8 **ИМАМОВА ДИЛФУЗА ИСМАИЛОВНА**

Совершенствование правового регулирования обязательственных отношений в международном частном праве

15 **КАН ЕКАТЕРИНА ЭДУАРДОВНА**

Правовая архитектура взаимосвязи искусственного интеллекта и защиты прав пациентов при медицинской диагностике

12.00.04 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. ХОЗЯЙСТВЕННОЕ
ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. ТРЕТЕЙСКИЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ

22 **ПИРМАТОВ ОТАБЕК ШАВКАТОВИЧ**

Процессуальные аспекты участия адвокатов в гражданском судопроизводстве

31 **ХУРСАНОВ РУСТАМ ХОЛМУРАТОВИЧ**

Вопросы субсидиарной ответственности в гражданском праве Республики Узбекистан

12.00.06 – ПРИРОДОРЕСУРСНОЕ ПРАВО. АГРАРНОЕ ПРАВО. ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ПРАВО

39 **САДИКОВА ДИЛАФРУЗ РАДЖАБОВНА**

Правовые вопросы использования возобновляемых источников энергии в Центральной Азии

12.00.08 – УГОЛОВНОЕ ПРАВО. КРИМИНОЛОГИЯ. УГОЛОВНО-ИСПОЛНИТЕЛЬНОЕ ПРАВО

47 **ХАЙДАРОВ ШУХРАТЖОН ДЖУМАЕВИЧ**

Научно-теоретические аспекты объективной стороны преступления аборта в уголовном процессе

55 **ЕРМАШЕВ ДЖЕНГИС МАРАТОВИЧ**

Квалификация преступлений в таможенной сфере: вопросы их взаимной дифференциации

CONTENTS

12.00.03 – CIVIL LAW. ENTREPRENEURSHIP LAW. FAMILY LAW.
INTERNATIONAL PRIVATE LAW

- 8 **IMAMOVA DILFUZA ISMAILOVNA**
Improving the legal regulation of obligation relations in international private law
- 15 **KAN EKATERINA EDUARDOVNA**
Legal architecture of the relationship between artificial intelligence and the protection of patients' rights in medical diagnostics

12.00.04 – CIVIL PROCEDURAL LAW. ECONOMIC PROCEDURAL LAW.
ARBITRATION AND MEDIATION.

- 22 **PIRMATOV OTABEK SHAVKATOVICH**
Procedural aspects of lawyers' participation in civil proceedings
- 31 **KHURSANOV RUSTAM KHOLMURATOVICH**
Issues of subsidiary liability in the civil law of the Republic of Uzbekistan

12.00.06 – THE LAW OF NATURAL RESOURCES. AGRARIAN LAW. ENVIRONMENTAL LAW

- 39 **SADIKOVA DILAFRUZ RADJABOVNA**
Legal issues of the use of renewable energy sources in Central Asia

12.00.08 – CRIMINAL LAW, PREVENTION OF OFFENSES. CRIMINOLOGY.
CRIMINAL PROCEDURAL LAW

- 47 **KHAYDAROV SHUKHRATJON JUMAEVICH**
Scientific and theoretical aspects of the objective side of the crime of abortion in the criminal process
- 55 **ERMASHEV JENGIS MARATOVICH**
Qualification of crimes in the customs field: issues of their mutual differentiation

Kelib tushgan / Получено / Received: 28.08.2024
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 19.09.2024
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 25.09.2024

DOI: 10.51788/tsul.rols.2024.8.3./UDMV3273

UDC: 347.4(045)(575.1)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FUQAROLIK HUQUQIDA SUBSIDIAR JAVOBGARLIK MASALALARI

Xursanov Rustam Xolmuratovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Fuqarolik kafedrasida dotsenti,
yuridik fanlar doktori
ORCID: 0000-0003-0706-2960
e-mail: hursanov.rustam.75@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada subsidiar javobgarlik tushunchasi va uning huquqiy tizimlardagi ahamiyati o'rganilgan. Subsidiar javobgarlik, asosan, asosiy qarzdor o'z majburiyatlarini bajarmagan taqdirda, kreditorning qo'shimcha javobgar shaxsga murojaat qilish imkoniyatini ta'minlaydi. Bu mexanizm kreditorning huquqlarini himoya qilish va qarzdorlar o'rtasidagi adolatni ta'minlashga qaratilgan. Maqolada subsidiar javobgarlikning huquqiy asoslari, uning paydo bo'lishi va rivojlanishi, shuningdek, turli huquqiy tizimlardagi o'ziga xos xususiyatlari batafsil yoritilgan. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida subsidiar javobgarlikning huquqiy asoslari aniq belgilangan va kreditorning asosiy qarzdorga talab qo'yish tartibi ko'rsatilgan. Maqolada subsidiar javobgarlikning kreditor va qarzdorlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishdagi roli va ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, subsidiar javobgarlikning xalqaro tajribasi va ushbu mexanizmni turli mamlakatlardagi huquqiy tizimlar bilan solishtirish orqali global miqyosdagi ahamiyati tadqiq etilgan. Subsidiar javobgarlikning turli huquqiy tizimlarda qanday qo'llanishi va bu boradagi huquqiy amaliyotlar haqida batafsil ma'lumot berilgan. Subsidiar javobgarlikning O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi o'rni va uning amaliyotdagi qo'llanishi haqida ham to'xtab o'tilgan.

Kalit so'zlar: fuqarolik huquqi, javobgarlik, majburiyatlar, subsidiar javobgarlik, huquqiy mexanizm, qarzdorlik, subsidiar javobgarlik shartlari.

ВОПРОСЫ СУБСИДИАРНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ В ГРАЖДАНСКОМ ПРАВЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Хурсанов Рустам Холмуратович,
доктор юридических наук,
доцент кафедры «Гражданское право»
Ташкентского государственного
юридического университета

Аннотация. В данной статье подробно освещается понятие субсидиарной ответственности и её значение в правовых системах. Субсидиарная ответственность главным образом предусматривает возможность обращения кредитора к дополнительному ответственному лицу в случае неисполнения основным должником своих обязательств. Данный механизм направлен на защиту прав кредитора и обеспечение справедливости

между должниками. В статье подробно рассмотрены правовые основы субсидиарной ответственности, её возникновение и развитие, а также специфика в различных правовых системах. В Гражданском кодексе Республики Узбекистан чётко определены правовые основы субсидиарной ответственности и указан порядок предъявления требований кредитором к основному должнику. В статье освещаются роль и значение субсидиарной ответственности в регулировании отношений между кредитором и должниками. В статье также указывается на важность этого механизма в глобальном масштабе, сравнивая его с международным опытом субсидиарной ответственности и правовыми системами в разных странах. Подробно рассматривается, как субсидиарная ответственность применяется в различных правовых системах, а также юридическая практика в этом отношении. В статье также затрагивается роль субсидиарной ответственности в законодательстве Республики Узбекистан и её практическое применение.

Ключевые слова: гражданское право, ответственность, обязательства, субсидиарная ответственность, правовой механизм, задолженность, условия субсидиарной ответственности.

ISSUES OF SUBSIDIARY LIABILITY IN THE CIVIL LAW OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Khursanov Rustam Kholmuratovich,

Associate Professor of the Department of Civil Law,
Tashkent State University of Law,
Doctor of Science in Law

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the concept of subsidiary liability and its significance in legal systems. Subsidiary liability mainly ensures the creditor's ability to address an additional liable person if the primary debtor fails to fulfill their obligations. This mechanism is aimed at protecting the rights of the creditor and ensuring fairness between the debtors. The article provides a detailed description of the legal foundations of subsidiary liability, its emergence and development, as well as its specific features in various legal systems. The Civil Code of the Republic of Uzbekistan clearly defines the legal basis of subsidiary liability and specifies the procedure for lodging a claim by the creditor against the main debtor. The article analyzes the role and significance of subsidiary liability in regulating relations between creditors and debtors. The international experience of subsidiary liability and the significance of this mechanism on a global scale were also studied by comparing it with legal systems in different countries. Detailed information is provided on how subsidiary liability is applied in various legal systems and legal practices in this regard. The role of subsidiary liability in the legislation of the Republic of Uzbekistan and its practical application are also discussed.

Keywords: civil law, liability, obligations, subsidiary liability, legal mechanism, indebtedness, conditions of subsidiary liability.

Kirish

Fuqarolik huquqi fanida asosiy ilmiy kategoriyalar – fuqarolik huquqiy munosabatlar, mutlaq va nisbiy huquqlar, mulk huquqi va umuman moddiy huquqlar qatorida majburiyat tushunchasi ham ajralib turadi. Mazkur tushunchaning umumiy, asosiy xarakteriga qaramay, fuqarolik huquqi fanida hali ham

ushbu tushunchaga yagona ta'rif yo'q. Shuning uchun majburiyat tushunchasi va boshqa majburiyat huquqi masalalari uzoq vaqt davomida dolzarb bo'lib qolgan hamda fuqarolik huquqi fani olimlarining e'tiborini doimiy ravishda jalb qiladi. Shu kabi dolzarb muammolardan biri, shubhasiz, subsidiar majburiyat tushunchasidir. Ushbu maqola

mazkur tushuncha bo‘yicha bildirilgan fikrlar va umumiy tushunchalarni rivojlantirishga bag‘ishlangan [1].

Tadqiqotning vazifasi “subsidiar majburiyat” tushunchasini o‘rganish, uning fuqarolik huquqi tizimidagi o‘rnini aniqlash, uning subsidiar javobgarlik va boshqa turdagi majburiyatlar bilan munosabatini aniqlashdan iborat.

Material va metodlar

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, turli mamlakatlarning fuqarolik kodekslari va qonunlari, huquqshunoslik bo‘yicha ilmiy maqolalar va monografiyalar, subsidiar javobgarlik bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar va tahlillar, shuningdek, tahliliy metod (subsidiar javobgarlikning huquqiy asoslarini tahlil qilish, turli mamlakatlar huquqiy tizimlaridagi subsidiar javobgarlikni solishtirish), tarixiy metod (subsidiar javobgarlikning kelib chiqishi va rivojlanishini o‘rganish, tarixiy huquqiy hujjatlar va sud amaliyotini tahlil qilish), qiyosiy-huquqiy metod (turli mamlakatlarning huquqiy tizimlaridagi subsidiar javobgarlikni qiyoslash, xalqaro tajribani o‘rganish va tahlil qilish), normativ-huquqiy metod (O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi va boshqa huquqiy hujjatlarni tahlil qilish, subsidiar javobgarlik bo‘yicha normativ-huquqiy bazani o‘rganish) usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari

“Subsidiar” atamasi “subsidiyadan” (subsidium) kelib chiqqan bo‘lib, lotin tilidan tarjima qilinganda, “yordam”, “qo‘llab-quvvatlash” kabi ma‘nolarni anglatadi [2]. Fuqarolik huquqi nazariyasiga ko‘ra, bu shaxsning qo‘shimcha javobgarligi bo‘lib, qonun, boshqa huquqiy hujjat yoki majburiyat shartlariga ko‘ra, qarzdor majburiyatning bajarilmasligi yoki to‘g‘ri bajarilmasligi holatida kreditor oldida javobgar bo‘ladi [3]. Uning maqsadi kreditorning huquq va qonuniy manfaatlarini to‘liqroq himoya qilishdan iborat, chunki asosiy qarzdor kreditorning talabini qondirmagan taqdirda, u bajarilmagan qism bo‘yicha

boshqa (subsidiyaviy, qo‘shimcha) qarzdorga talab qo‘yishi mumkin [4].

Biroq fuqarolik huquqi mutaxassislari majburiyatning bu turi mohiyatini turlicha belgilaydi. Ko‘plab mualliflar subsidiyaviy javobgarlikni majburiyat-huquqiy shakli, xususan, ko‘p shaxsli majburiyat bilan tenglashtiradi. Masalan, rus olimi E.A. Suxanov subsidiyaviy (qo‘shimcha, zaxira) majburiyatlarni ko‘p shaxsli majburiyatlarning bir turi sifatida ko‘rib, subsidiyaviy majburiyat passiv solidarlik majburiyati kabi fuqarolik-huquqiy javobgarlikning bir turi (shakli) hisoblanishini ta’kidlagan [5].

Shu bilan birga, ayrim mualliflar subsidiyaviy majburiyatlar tabiati haqida boshqacha fikrga ega. Xususan, G.N. Ivanova va A.S. Shevchenko nazdida “subsidiyaviy majburiyatlar ko‘p shaxsli majburiyatlar huquqiy modeliga mos kelmaydi”. Shartnomaviy subsidiyaviy majburiyatlarda boshidanoq ko‘p shaxsli majburiyatlar elementlari mavjud bo‘lmaydi [6].

A.I. Maslyayevning ta’kidlashicha, shartnomadan tashqari subsidiyaviy majburiyatlarda ham ko‘p shaxsli majburiyatlar elementlari yo‘q [7]. Shartnomaviy majburiyatlarni bajarishga nisbatan subsidiyaviy javobgarlik, umumiy qoida bo‘yicha qarzdorning unga qo‘yilgan talablarni qondirishdan bosh tortishi holatida yuzaga keladi.

O‘quv va ilmiy adabiyotlarda subsidiar javobgarlik ko‘pincha subsidiar majburiyat sifatida talqin etiladi. Bu borada ko‘pchilik mualliflar subsidiar majburiyatni subsidiar javobgarlik shakli sifatida aniqlashda yakdildirlar. Masalan, V.V. Vitryanskiy subsidiar javobgarlikni javobgarlikning bir nechta shaxslar o‘rtasida taqsimlanishi mezoniga ko‘ra, ulushli va solidarlik javobgarlik bilan bir qatarga qo‘yadi [8].

Yuqoridagi fikrlarni tahlil qilgan holda, subsidiar javobgarlikning mohiyati va uning huquqiy tabiatiga oid turli yondashuvlar mavjudligini ko‘rish mumkin. Bu yondashuvlar orasida mualliflar o‘rtasida kelishmov-

chiliklar mavjud bo’lsa-da, umumiy maqsad kreditorning huquq va manfaatlarini himoya qilishdan iborat.

Bizning fikrimizcha, subsidiar javobgarlikning asosiy maqsadi kreditor talablarini to’liq qondirishni ta’minlashdir. Bu, ayniqsa, asosiy qarzdor majburiyatlarini bajarmagan yoki to’g’ri bajarmagan holatlarda muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtayi nazardan, subsidiar javobgarlik kreditor uchun qo’shimcha kafolat sifatida xizmat qiladi.

E.A. Suxanovning subsidiyaviy majburiyatlarni ko’p shaxsli majburiyatlarning bir turi sifatida ko’rishi bu majburiyatlarning huquqiy tabiatini kengroq tushunishga yordam beradi. Biroq G.N. Ivanova va A.S. Shevchenko kabi mualliflarning subsidiyaviy majburiyatlarning ko’p shaxsli majburiyatlar huquqiy modeliga mos kelmasligi haqidagi fikrlari ham e’tiborga loyiqdir. Bu yondashuvlar subsidiyaviy majburiyatlarning o’ziga xos xususiyatlarini yanada chuqurroq o’rganishga imkon beradi.

Shuningdek, V.V. Vitryanskiyning subsidiar javobgarlikni ulushli va solidarlik javobgarlik bilan bir qatorga qo’yishi bu javobgarlikning turli shakllarini solishtirish va ularning o’zaro bog’liqligini tushunishga yordam beradi. Bu yondashuv subsidiar javobgarlikning huquqiy tizimdagi o’rnini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, subsidiar javobgarlikning huquqiy tabiatini to’g’ri tushunish hamda uni amaliyotda to’g’ri qo’llash kreditor va qarzdorlar o’rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda muhim rol o’ynaydi. Bu borada turli yondashuvlarni o’rganish va tahlil qilish subsidiar javobgarlikning huquqiy tizimdagi o’rnini yanada aniqlashga yordam beradi.

O’zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 329-moddasida subsidiar javobgarlik tushunchasiga ta’rif berilgan.

Qonunchilik yoki majburiyat shartlariga muvofiq, asosiy qarzdor bo’lgan boshqa shaxsning javobgarligiga qo’shimcha ravishda javobgar (subsidiar javobgarlik) shaxs-

ga talablar qo’yishdan oldin kreditor asosiy qarzdorga talab qo’yishi kerak.

Agar asosiy qarzdor kreditorning talabini qondirishdan bosh tortsa yoki kreditor undan qo’yilgan talabga oqilona muddatda javob olmagan bo’lsa, bu talab subsidiar javobgar bo’lgan shaxsqa qo’yilishi mumkin.

Kreditor asosiy qarzdorga bo’lgan o’z talabini qondirishni subsidiar javobgar shaxsdan talab qilishga haqli emas, basharti bu talab asosiy qarzdorga muqobil talabni hisobga o’tkazish yoki mablag’larni asosiy qarzdordan nizosiz undirib olish yo’li bilan qondirilishi mumkin bo’lsa.

Subsidiar javobgar shaxs o’ziga kreditor tomonidan qo’yilgan talabni qondirishdan oldin bu haqda asosiy qarzdorni ogohlantirishi, bordi-yu bunday shaxsqa nisbatan da’vo qo’zg’atilgan bo’lsa, asosiy qarzdorni ishda qatnashishga jalb qilishi kerak. Aks holda, asosiy qarzdor o’zining kreditorga qarshi e’tirozlarni subsidiar javobgar shaxsning regress talabiga qarshi qo’yish huquqiga ega.

Avvalo, subsidiar javobgarlik, asosan, asosiy qarzdor bo’lgan shaxsning javobgarligiga qo’shimcha ravishda boshqa bir shaxsning javobgarligini anglatadi. Bu shuni anglatadiki, agar asosiy qarzdor o’z majburiyatlarini bajara olmasa yoki bajarmasa, kreditor subsidiar javobgar shaxsqa murojaat qilish huquqiga ega. Biroq kreditor subsidiar javobgar shaxsqa talab qo’yishdan oldin asosiy qarzdorga talab qo’yishi shart. Bu talab qonunchilikka muvofiq, asosiy qarzdorning javobgarligini birinchi navbatda amalga oshirishni ta’minlaydi va subsidiar javobgarlikning ikkinchi darajali tabiati bilan bog’liq.

Agar asosiy qarzdor kreditorning talabini qondirishdan bosh tortsa yoki kreditor asosiy qarzdordan oqilona muddat ichida javob olmasa, unda kreditor subsidiar javobgar shaxsqa murojaat qilish huquqiga ega. Bu holat kreditorning asosiy qarzdor bilan bog’liq majburiyatlari bajarilmasligi natijasida yuzaga keladi va subsidiar javobgar shaxs javobgarligini faollashtiradi.

Shuningdek, norma shuni ta'kidlaydi, agar asosiy qarzdor o'z majburiyatlarini bajarish imkoniyatiga ega bo'lsa, kreditor subsidiar javobgar shaxsdan talab qilishga haqli emas. Bu kreditorning asosiy qarzdordan muqobil talabni hisobga olish yoki mablag'larni asosiy qarzdordan nizosiz undirib olish imkoniyatiga ega bo'lishi bilan bog'liq. Mazkur holat kreditorning asosiy qarzdor bilan bog'liq munosabatlarini tartibga soladi va subsidiar javobgar shaxsning huquqlarini himoya qiladi.

Norma, shuningdek, subsidiar javobgar shaxsning o'z majburiyatlarini bajarishdan oldin asosiy qarzdorni ogohlantirish majburiyatini belgilaydi. Agar subsidiar javobgar shaxsga nisbatan da'vo qo'zg'atilgan bo'lsa, u holda asosiy qarzdorni ishda qatnashishga jalb qilish zarur. Bu asosiy qarzdorning kreditorga qarshi o'z e'tirozlarini subsidiar javobgar shaxsning regress talabiga qarshi qo'yish huquqini ta'minlaydi. Aks holda, asosiy qarzdor subsidiar javobgar shaxsning talablariga qarshi o'z e'tirozlarini ilgari surish imkoniyatidan mahrum bo'ladi.

Umuman olganda, subsidiar javobgarlik mexanizmi kreditorning huquqlarini himoya qilish va asosiy qarzdor bilan bog'liq majburiyatlarni bajarish jarayonida adolatni ta'minlashga qaratilgan. Bu, shuningdek, qarzdorlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish va huquqiy himoyani kuchaytirishga xizmat qiladi [9].

Tadqiqot natijalari tahlili

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining boshqa bir qator normalarida ham subsidiar javobgarlik masalasi yoritilgan.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 48-moddasiga ko'ra, agar yuridik shaxsning to'lovga qobiliyatsizligi shu yuridik shaxs uchun majburiy ko'rsatmalar berish huquqiga ega bo'lgan muassis (ishtirokchi) sifatidagi shaxs yoki yuridik shaxs mol-mulki mulkdori yoxud yuridik shaxsning boshqaruv organi tarkibiga kiruvchi shaxs yoki qarzdorning ishlarini boshqaruvchi

shaxsning g'ayriqonuniy harakatlari tufayli vujudga keltirilgan bo'lsa, yuridik shaxsning mol-mulki yetarli bo'lmagan taqdirda, bunday shaxs zimmasiga qonunga muvofiq, uning majburiyatlari bo'yicha subsidiar javobgarlik yuklatilishi mumkin.

Normaga ko'ra, subsidiar javobgarlik tushunchasi yuridik shaxsning to'lovga qobiliyatsizligi holatida muassis, boshqaruv organi a'zolari yoki mol-mulk mulkdorining g'ayriqonuniy harakatlari natijasida yuzaga kelishi mumkin. Agar yuridik shaxsning moliyaviy holati yetarli bo'lmasa va bu holat yuqoridagi shaxslarning noqonuniy harakatlari bilan bog'liq bo'lsa, ular yuridik shaxsning majburiyatlari bo'yicha subsidiar javobgarlikka tortilishi mumkin. Bu kreditorlarning huquqlarini himoya qilish va yuridik shaxsning moliyaviy qiyinchiliklarini bartaraf etish maqsadida amalga oshiriladi. Shunday qilib, subsidiar javobgarlik mexanizmi yuridik shaxslar faoliyatida adolatni ta'minlashga xizmat qiladi.

Fuqarolik kodeksining 63-moddasiga ko'ra, bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi ta'sis hujjatlarida belgilangan miqdordagi ulushlarga bo'lingan jamiyat qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat hisoblanadi. Bunday jamiyat ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha o'z mol-mulki bilan qo'shgan hissasi qiymatiga nisbatan hamma uchun bir xil bo'lgan, jamiyatning ta'sis hujjatlarida belgilanadigan karrali miqdorda solidar tarzda subsidiar javobgar bo'ladi. Ishtirokchilardan biri to'lovga qobiliyatsiz bo'lib qolganda, uning jamiyat majburiyatlari bo'yicha javobgarligi, agar jamiyatning ta'sis hujjatlarida javobgarlikni taqsimlashning boshqacha tartibi nazarda tutilmagan bo'lsa, boshqa ishtirokchilar o'rtasida ularning qo'shgan hissasiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Fuqarolik kodeksining 72-moddasiga ko'ra, davlat korxonasining mol-mulki yetarli bo'lmaganda, davlat uning majburiyatlari bo'yicha subsidiar javobgar bo'ladi. Shuningdek, kodeksning 76-moddasiga binoan, muassasa o'z majburiyatlari bo'yicha ixtiyoridagi pul

mablag'lari bilan javob beradi. Bu mablag'lar yetarli bo'lmasa, tegishli mol-mulk egasi uning majburiyatlari yuzasidan subsidiar javobgar bo'ladi.

Fuqarolik kodeksining 293-moddasida kafil javobgarligi nazarda tutilgan. Unga ko'ra, qarzdor kafillik bilan ta'minlangan majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, kafil va qarzdor kreditor oldida solidar javob beradi, basharti qonun yoki kafillik shartnomasida kafilning subsidiar javobgar bo'lishi nazarda tutilmagan bo'lsa.

Basharti kafillik shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, kafil kreditor oldida qarzdor bilan baravar hajmda javob beradi, shu jumladan, foizlar to'laydi. Qarzni undirib olish bo'yicha sud chiqimlari va qarzdor majburiyatini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi tufayli kreditor ko'plab boshqa zararlarni to'laydi.

Agar kafillik shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, kafil bo'lgan shaxslar kreditor oldida solidar javob beradi.

Ushbu norma kafillik institutining asosiy tamoyillari va kafillik shartnomasining ahamiyatini belgilaydi. Kafillik – qarzdor tomonidan majburiyatlarni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, kafilning kreditor oldida javobgarlikni o'z zimmasiga olishidir.

Agar qarzdor o'z majburiyatlarini bajarmasa, kafil va qarzdor birgalikda kreditor oldida javob beradi. Bu kreditorning huquqlarini himoya qilish va qarzdorning to'lov qobiliyatsizligi holatida kafillik mexanizmini kuchaytiradi.

Kafillik shartnomasida kafilning subsidiar javobgarligi nazarda tutilmagan bo'lsa, kafil qarzdor bilan bir xil darajada javob beradi. Bu kafilning to'lov majburiyatlari qarzdor bilan bir xil bo'lishini anglatadi.

Kafil qarzdor tomonidan majburiyatlar bajarmaganligi sababli nafaqat qarz, balki foizlar, sud chiqimlari va boshqa zararlarni ham to'lashga majbur. Bu kreditorning zarar ko'rmasligini ta'minlashga qaratilgan.

Agar kafillik shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, birgalikda kafil bo'lgan shaxslar ham solidar javob beradi. Bu bir nechta kafillarning birgalikdagi javobgarligini ta'minlaydi va kreditorning huquqlarini yanada mustahkamlaydi.

Umuman olganda, ushbu norma kafillik instituti samaradorligini oshirish va kreditorlar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan. Kafillik shartnomasi shartlari va tartiblari, shuningdek, kafil va qarzdor o'rtasidagi munosabatlarni aniq belgilash orqali moliyaviy majburiyatlarni bajarish adolatni ta'minlaydi.

Germaniyada subsidiar javobgarlik masalalari Germaniya Fuqarolik kodeksi (BGB) da aniq belgilangan [10]. Germaniya Fuqarolik kodeksining 765–780-moddalari kafillik munosabatlarini tartibga soladi. 773-moddasiga ko'ra esa kafillik faqat asosiy qarzdor majburiyatini bajarmagan taqdirda amal qiladi. Bundan tashqari, Germaniya Fuqarolik kodeksining 777-moddasi kafillik shartnomasida ko'rsatilgan shartlar va kafillik muddati haqida aniq qoidalarni belgilaydi [11].

Fransiyada subsidiar javobgarlik Fransiya Fuqarolik kodeksi (Code civil)ning 2288–2320-moddalari orqali tartibga solinadi. 2290-moddaga ko'ra, kafillik faqat asosiy qarzdor majburiyatini bajarmagan taqdirda amalga oshiriladi. Shuningdek, 2298-moddada kafillik munosabatlarida kafillik beruvchi shaxsning javobgarlik chegaralari aniq belgilangan [12].

AQShda subsidiar javobgarlik, ayniqsa, korporativ huquqda keng qo'llanadi. Delaware General Corporation Law (DGCL)ning 18-303-moddasida mas'uliyati cheklangan jamiyatlarda (LLC) ishtirokchilarning subsidiar javobgarligi belgilangan [13]. Bundan tashqari, Uniform Commercial Code (UCC)ning 3-415-moddasida kafillik va garov munosabatlarida subsidiar javobgarlik qoidalari keltirilgan. Bu qoidalar AQSh huquqiy tizimida subsidiar javobgarlikni tartibga soladi [14].

Yaponiyada subsidiar javobgarlik fuqarolik kodeksi orqali tartibga solinadi. Yaponiyaning fuqarolik kodeksi (Minpo) Germaniya va Fransiya huquqiy tizimlariga asoslanib yaratilgan.

Yaponiya Fuqarolik kodeksi (Minpo)ning 465-moddasi kafillik va kafolat bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi. Bu modda asosiy qarzdor majburiyatlarini bajarmagan taqdirda, kafillik beruvchi shaxsning javobgarligini belgilaydi [15].

Shvetsiyada subsidiar javobgarlik huquqi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, asosan, fuqarolik va korporativ huquq orqali tartibga solinadi.

Shvetsiya shartnomalar qonuni (Swedish Contracts Act) Shvetsiyada shartnomalar va kafillik munosabatlarni tartibga soladi. Shvetsiyada subsidiar javobgarlik ko'pincha shartnomaviy munosabatlar doirasida qo'llanadi [16].

Kompaniyalar to'g'risidagi qonun (Swedish Companies Act)ga ko'ra, kompaniya direktorlarining subsidiar javobgarligi belgilangan. Bu qonun korporativ javobgarlikni aniq tartibga soladi [17].

Yuqoridagi mamlakatlar huquqiy tizimlarida subsidiar javobgarlik bo'yicha ko'plab ilg'or tajribalar mavjud bo'lib, ularni O'zbekiston huquqiy tizimiga qo'llash mumkin. Har bir mamlakatning huquqiy tajribasi o'ziga xos va bu tajribalarni o'rganish orqali O'zbekiston qonunchiligini yanada takomillashtirish imkoniyati mavjud.

Xulosalar

Subsidiar javobgarlik huquqiy tizimlarda kreditorlarning huquqlarini himoya qilish va qarzdorlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish uchun muhim vosita hisoblanadi. Bu

javobgarlik turi, asosan, asosiy qarzdor o'z majburiyatlarini bajarmagan taqdirda, kreditorning qo'shimcha javobgar shaxsga murojaat qilish imkoniyatini ta'minlaydi. Mazkur mexanizm kreditorning huquqlarini himoya qilish va qarzdorlar o'rtasidagi adolatni ta'minlashga qaratilgan.

Subsidiar javobgarlikning asosiy maqsadi kreditorning huquq va qonuniy manfaatlarini to'liqroq himoya qilishdir. Asosiy qarzdor kreditorning talabini qondirmagan taqdirda, kreditor bajarilmagan qism bo'yicha subsidiar javobgar shaxsga talab qo'yishi mumkin. Bu kreditorning huquqlarini himoya qilish va qarzdorlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish uchun muhim vosita hisoblanadi.

Subsidiar javobgarlikning huquqiy asoslari turli mamlakatlarda turlicha tartibga solingan. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida subsidiar javobgarlik tushunchasi aniq belgilangan va kreditorning asosiy qarzdorga talab qo'yish tartibi o'rnatilgan. Bu norma kreditorning asosiy qarzdor bilan bog'liq majburiyatlari bajarilmasligi natijasida subsidiar javobgar shaxsning javobgarligini keltirib chiqaradi.

Subsidiar javobgarlikning huquqiy mexanizmi kreditorning huquqlarini himoya qilish va qarzdorlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish uchun muhim vosita hisoblanadi. Mazkur mexanizm kreditorning asosiy qarzdor bilan bog'liq bo'lgan majburiyatlari bajarilmasligi natijasida subsidiar javobgar shaxsning javobgarligini faollashtiradi. Bu kreditorning huquqlarini himoya qilish va qarzdorlar o'rtasidagi adolatni ta'minlashga qaratilgan.

REFERENCES

1. Bakin A.S. Ponyatiye subsidiarnogo obyazatelstva [The concept of subsidiary obligation]. *Russian Jurisprudence at the Turn of the Century: A Tribune of a Young Scientist*. Tomsk, 2004, Peleng, vol. 4, pp. 80–83.
2. Bogdanova Y.Y. Pravovoye regulirovaniye subsidiarnoy otvetstvennosti [Legal regulation of subsidiary liability]. Belgorod, 2001, p. 180.

3. Sukhanov Y.A. Subsidiarnyye obyazatelstva [Subsidiary obligations]. *Russian civil law. Law of obligations*. Moscow, 2011, vol. 2, pp. 53–54.
4. Kryukova Y.Y. Ponyatiye subsidiarnogo obyazatel'stva v grazhdanskom prave Rossii [The concept of subsidiary obligation in the civil law of Russia.]. *Problems of Law*, 2012, no. 7/38, p. 79.
5. Sukhanov Y.A. Grazhdanskoye pravo [Civil Law]. Moscow, 1999, vol. 2, part 1.
6. Ivanova G.N., Shevchenko A.S. Subsidiarnaya otvetstvennost [Subsidiary liability]. *Jurisprudence*, 1998, no. 2.
7. Kalpina A.G., Maslyayeva A.I. Grazhdanskoye pravo [Civil Law]. Moscow, 1997, vol. 1.
8. Braginskiy M.I., Vitryanskiy V.V. Dogovornoye pravo, obshchiye polozheniya [Contract law, general provisions]. Moscow, 1997, p. 465.
9. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga sharh [Commentary on the Civil Code of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, Ministry of Justice, Vektor-Press, 2010, vol. 1, part 1, p. 616.
10. German Civil Code (BGB). Available at: https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_bgb/
11. Markesinis B.S., Unberath H. The German Law of Torts. A Comparative Treatise. Hart Publ., 2002.
12. Légifrance - The public service for the dissemination of law Available at: https://www.legifrance.gouv.fr/content/download/1955/13715/version/4/file/Code_22.pdf
13. Delaware General Corporation Law. Available at: <https://delcode.delaware.gov/title8/c001/index.html>
14. Uniform Commercial Code Article 3. Available at: <https://www.law.cornell.edu/ucc/3>
15. Kozuka S., Nottage L. Japanese Business Law in Western Languages. An Annotated Selective Bibliography. Routledge, 2010.
16. Swedish Contracts Act - English Translation. Available at: <https://www.notisum.se/rnp/sls/lag/19150318.htm>
17. Swedish Companies Act. Available at: <https://www.riksdagen.se/en/how-the-riksdag-works/what-does-the-riksdag-do/laws-and-decisions/read-more-about-laws-and-decisions/swedish-laws-in-english/>

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal
Правовой научно-практический журнал
Legal scientific-practical journal

2024-yil 3-son

VOLUME 8 / ISSUE 3 / 2024
DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2024.8.3.